

MUQADDAS MANZILLAR TASVIRI  
(NAVOIY FURQAT VA ABDULLA ORIPOV IJODI MISOLIDA)

IMAGE OF SHRINES IN ALISHER NAVOI, FURKAT AND ABDULLA ORIPOV'S  
WORKS

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7828295>

Dilfuza Avazova

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy, garchi haj ziyoratiga bormagan bo'lsa ham, "Layli va Majnun" dostonida Majnunning Ka'ba ziyoratiga borgani munosabati bilan bu muqaddas maskanni yuksak badiiyat bilan tasvirlagani tadqiq qilingan. Zokirjon Furqatning "Hajnoma" va Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkumlarida ayni mavzuning o'ziga xos badiiy talqin etilgani isbotlangan. Har ikki shoir buyuk salafi Alisher Navoiy an'alarini yangilay olgani, ushbu mavzuni teran ma'rifiy mazmun va ohorli badiiy tasvir uyg'unligida o'ziga xos ifodalay bilgani misollar asosida tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ka'ba, ziyorat, iymon, ijodiy niyat, an'ana, yangilik, ma'rifiy mazmun, poetik tasvir, badiiy talqin.*

**Annotation:** *Great Poet Alisher Navoi who did not go to Hajj pilgrimage, but Ka'ba was well defined by him in his "Layli and Majnun" poem. The specific interpretation of this theme is well-proved by Zakirjon Furkat's "Hajjnom" and Abdulla Oripov's "The Diary of Hajj" works. Both these writers make Alisher Navoi's works new and the enlightenment contents were well defined in a very new way by means of effective examples in this article.*

**Key words:** *Ka'ba, pilgrimage, faith, creative, intention, tradition news, enlightenment content, poetic image, artistic interpretation.*

Ka'batulloh ziyorati mavzusi badiiy adabiyotda alohida o'rin tutadi. Hazrat Alisher Navoiy, garchi haj ibodatini ado etishga muyassar bo'lmasa-da, lirik she'rlarida ham, "Xamsa"ning uchinchi dostoni – "Layli va Majnun"da ham ushbu mavzuga diqqat qaratgan. Buyuk shoir ijodidagi Ka'batulloh mavzuiga doir talqinlarni xalflari Zokirjon Furqat va Abdulla Oripov she'riyati bilan qiyosiy tahlil etish adabiyotshunoslik uchun muhim xulosalar berishi jihatidan qimmatlidir.

Ma'lumki, Ka'batulloh ziyorati – haj amali imkoniyati yetgan har bir musulmon uchun farz bo'lgan ibodatdir.

*Eyki debsenkim, bilay tavhid sirridin xabar,*

*Shar'din nekim tajovuz ayladi – ilhod bil [Navoiy 1988: 233].*

Tavhid – Alloh taoloning yakkayu yagonaligi bilan bog‘liq e‘tiqod ilmi ekani, ushbu baytda “ulug‘ shoir e‘tiqod (tavhid) bilan amal (shariat) uyg‘un bo‘lishi shartligini talqin etgan”i [Jabborov 2021: 17] nazarda tutilsa, hazrat Alisher Navoiy shariat chegarasidan chiqishni dindan qaytish deb hisoblagani sabablari ayon bo‘ladi. Buyuk mutafakkir hayotda islom shariati talablariga to‘liq rioya etib yashagani ma‘lum. “Vaqfiya” asaridagi mana bu fikrlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi: “...chun kishiga abadiy davlat va saromadi saodat va hayot chashmasining navidi va najot manzilining umidi islomning besh sutunlik zotu-l-imodig‘a kirmaguncha mumkin ermas va bu xamsu-l-muborak panjasig‘a ilik urmag‘uncha hech ish natija bermas. Avval ul kalimai tavhiddur. Shukrkim, oni alifdek jonim orasida naqsh etibmen. Ikkinchi – saloti xamsadur. Bihamdillahkim, oni naydek zehn aro sabt qilibmen. Uchunchi – Ramazonning o‘ttuz kunining ro‘zasidur. Shukrulillahkim, oni lomdek qalbidamda yoshurubmen. To‘rtinchi – zakotdur. Jonim naqdi ul Tengrig‘a zakotim...” [Navoiy 2011 (1): 653].

Hazrat Navoiy beshinchi farz – haj ziyoratini ado etish uchun ham jiddu jahd qilgan. Lekin taqdir taqozosi bilan bu niyati amalga oshmay qolgan. Professor Nurboy Jabborov buning sabablarini quyidagicha izohlaydi: “Birinchii marta haj niyatida yo‘lga tushib, Mashhadga yaqinlashganda, Mavlono Abdulhay ismli chopar Sulton Husayn Boyqarodan maktub olib keladi. Sulton Iroq va Bog‘doddagi vaziyat notinch va beqaror ekani, Misr va Shom chegaralarida turli boshboshdoqliklar yuz berayotgani to‘g‘risidagi xabarlar bois, yo‘lning xavfsizligi hajning shartlaridan biri ekanini dalil qilib, ulug‘ amirni haj safaridan qaytaradi. Ikkinchi marta... Sulton Husayn Boyqaro 1500 yil 2 iyunda bajarilishi barcha uchun majburiyligi ta‘kidlangan maxsus farmon chiqaradi. Unga ko‘ra, hazrat Alisher Navoiy haj yo‘lida joylashgan mamlakatlardan qay biriga borsa, u yerdagi hokimlar, a‘yonlar, aholi va yo‘l xavfsizligi qo‘riqchilari hurmat-ehtirom ko‘rsatishi, xizmat qilishi, xavf-xatarli joylardan o‘tishida qo‘riqchilar bilan ta‘minlashi shart, deb belgilangan. Ammo farmon chiqarilgan javzo (21 may – 21 iyun) oyida havo harorati ko‘tarilgani bois safarni amalga oshirish katta qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligi e‘tiborga olinib, haj safariga sunbula (22 avgust – 21 sentyabr) oyida borishga qaror qilinadi. Hazrat Alisher Navoiy uchinchi marta 1500 yilning 26 avgustida haj niyatida yo‘lga otlanadi. Lekin yo‘lda sog‘ligi yomonlashgani sababli o‘sha yilning sentyabrida yo‘lga chiqishni rejalashtirib, uyga qaytadi. Biroq Xurosonning ulug‘ mashoyixlari va olimlari shahzoda Muhammad Husayn Mirzo isyon ko‘targani munosabati bilan saltanat osoyishtaligini saqlashda buyuk amirning roli katta ekanini aytib, haj safarini qoldirishni so‘raydi. Shunday qilib, bu qutlug‘ niyat amalga oshmay qoladi” [Jabborov 2021: 19-20].

Buyuk shoir, garchi o‘zi hajga bora olmagan bo‘lsa ham, asarlarida bu mavzuga alohida diqqat qaratgan. Jumladan, “Layli va Majnun” dostonida Majnunning ota-onasi uning dardiga chora izlab, Ka‘ba ziyoratiga olib borgani tasviri berilgan.

Fursatni bori bilib g‘animat,

Ka'ba sori qildilar azimat.  
Chun bo'ldilar ul haramg'a mahram,  
Yo'q, yo'q, ne haramki, arshi a'zam.  
Yer uzra sipehrdin nishone,  
Tufrog uza balki osmone.  
Yer maqdamidin falakka monand,  
Ul bu falak uzra arshpayvand.  
Har rukni kelib sukung'a maqrun,  
Arkon anga misli rub'i maskun [Navoiy 2011 (2): 123-124].

Hazrat Navoiy Ka'ba ziyoratiga bormagan bo'lsa ham, komil musulmon sifatida uni chuqur muhabbat bilan tasvirlaydi. Baytu-l-haramni bamisoli arshi a'zamga qiyoslaydi. Ka'batullohni yer uzra falak nishonasiga, tufrog ustidagi osmonga tashbeh etadi. Buyuk shoir ta'rificha, bu muqaddas bayt sharofatidan u joylashgan yer bamisoli falakka mengzaydi va Ka'batulloh bu falak uzra Arshga tutashib ketgandek taassurot uyg'otadi. Arshga yaqin bo'lgan bu baytning har bir ustuni yer yuziga tatiydi.

Hazrat Navoiydan farqli ravishda Zokirjon Furqat va Abdulla Oripov haj ziyoratini ado etgan va o'zlari bevosita ko'rgan voqelik taassurotlarini yozgan. Furqat "Hajnoma" sida Makkai mukarramadagi emas, Madinai munavvaradagi baytu-l-haram – Masjidi nabaviy tasvirlangan. Sababi, shoir "Hajnoma" sining Makkai mukarrama ziyorati bilan bog'liq qismi bizgacha yetib kelmagan. Shoir, jumladan, Harami sharifni quyidagicha ta'rif etadi:

Qilay emdi Haram vasfin sarosar,  
Saodat hujrasi nuri munavvar.  
Zumurrad tekmai toji saodat,  
Sharafda gumbazi voloyi axzar.  
Bino chog'ida me'mori – maloik,  
Suvi – kavsar ani, tufrog'i – anbar.  
Suvi tufrog'ini loy aylaganda  
Somon o'rnig'a solg'on mushki za'far [Furqat 2019: 4].

Ushbu satrlarni tahlil etgan professor Nurboy Jabborov fikricha: "Furqat majoziy tashbeh vositasida (Haram saodat hujrasiga, gumbaz saodat tojiga mengzalgan. Suvi kavsarga, tufrog'i anbarga qiyoslangan. Loy qilinganda somon o'rniga mushki za'far solingan) Haramning ulug'vor tasvirini yaratadi" [Jabborov 2019: 4].

"Arshi a'zam" bilan bog'liq talqin har ikki shoirda mavjud. Hazrat Navoiy Ka'batullohni Arshi a'zamga qiyoslagan bo'lsa, Furqat payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom me'rojga chiqqanda Arshi a'zam ul zotning kovushlarini ko'ziga surma qilgani istiorasini qo'llaydi. Harami sharifni ulug'lashda Furqat hazrat Navoiy an'analarini munosib davom ettirgan:

Kaland o'lmoq tamanno etdi xurshid,  
Va lekin etmadi Tangri muyassar – [Furqat 2019: 4].

misralarida Harami sharif uchun somon o'rniga mushki za'far qo'shib loy qorilganda, quyosh ketmon bo'lishni orzu qilgani, lekin Tangri uni bunga muyassar etmagani tasviri shoirning taxayyul olami naqadar keng va betakror ekani isbotidir.

Hazrat Navoiy Ka'batullohni falakning markazini egallab, atrofida kichik yulduzlarni jamlagan qutb yulduziga qiyoslaydi. U shunday bir qutbki, atrofida eshiklarni kipriklari bilan tozalaydigan o'zga qutblar joylashgan:

O'rnida nechukki qutbi sobit,

Atrofi ushoq toshi savobit.

Ne qutbki tegrasida aqtob,

Mujgon bila xokro'bi abvob [Navoiy 2011 (2): 124].

Bu kabi ta'riflar buyuk shoir qalbidagi iymon nuri natijasi ekani bilan o'quvchi ongi va ruhiga kuchli ta'sir qiladi. Hazrat Navoiyning fikrga badiiy ziynat berish salohiyati nechog'liq yuksak ekanini yana bir karra namoyon etadi. Furqatning masjidi Nabaviy ta'rifiga bag'ishlangan satrlari ohorli tashbehu istioralari bilan alohida ajralib turadi. "Hajnoma"ning keyingi satrlari avvalgi fikrlar izchil davom ettirilgani va rivojlantirilgani jihatidan ayricha ahamiyatga ega:

Suvolg'on kajlari kofuru abyoz,

Qo'yulg'on toshlari yoqutu ahmar.

Yerini xoki poki mushksoro,

To'kulg'on reza-reza toshi gavhar [Furqat 2019: 4].

Abdulla Oripov "Haj daftari" turkumiga kiruvchi "Alloh dargohi" she'rida Ka'batullohni mana bunday ta'riflaydi:

Necha ming musulmon tunu kun uyg'oq,

Ka'ba atrofini tinmay aylanar.

Murodi – tabarruk maskanni o'pmoq,

Sajdaga har biri bir zum shaylanar.

Olam ummon bo'lsa, girdobi shu joy,

Olam osmon bo'lsa mehvari bunda.

Milyard martabali jahon hoynahoy

Kemadek qalqadi bitta to'lg'inda [Oripov 2021: 432].

Bu satrlarda Ka'batulloh musulmon ahlining ko'zidan uyquni oladigan, tabarruk maskanni o'pmoq va sajla qilmoq orzusini ko'ngliga soladigan muqaddas ma'vo ekani betakror ifodalangan. Shoir tashbehiga ko'ra, olam ummon bo'lsa, girdobi, osmon bo'lsa, mehvari – Ka'batulloh. Milyard martabali jahon kemadek bitta to'lg'inda – Ka'batulloh muhabbati to'qinida qalqadi.

Abdulla Oripov she'rini hazrat Navoiy va Furqat asarlariga yaqinlashtiruvchi xususiyat – iymon yog'dusi bilan yozilgani. Shoir ulug' salafllari talqinini hech bir jihatdan takrorlamaydi, uning o'z talabi bo'yicha, she'r "betakror mazmun, go'zal tashbeh, sirli ruh" uyg'unligida ijod etilgan.

Yer bo'ylab tariqday sochilgan inson,

Bir qushning oldiga kelib tizilmish.

Abasdir bu joyda millat, irq, lison,

Zamin yo'riqlari bunda buzilmish [Oripov 2021: 432].

Ka'batullohga intilgan odamlarning sochilgan tariqning tizilishiga, bu muqaddas ma'voni qushga qiyoslash – Abdulla Oripovgacha hech bir shoirda kuzatilmagan tashbeh. Aslida, mantiqan qaraganda, tariq qushning emas, qush tariqning oldiga borishi taqozo etiladi. Bu tasvir – shoir ijodiy niyatining mahsuli bo'lib, maxsus shunday yo'l tutilgan. Chunki bu yerda “zamin yo'riqlari buzilmish”. Bu joyda millat, irq, lison degan tushunchalar ahamiyatini yo'qaotadi.

Bu joyning bor erur na Qorabog'i,

Na O'zgan, na O'shu Farg'onasi bor.

Allohning O'zidir yolg'iz charog'i,

Charoqning hisobsiz parvonasi bor [Oripov 2021: 432].

Ya'ni bu joyning yolg'i charog'i – Alloh taoloning O'zi. Uning parvonasi – Allohning oshiqdari esa hisobsiz. Ushbu tashbeh orqali shoir bu muqaddas zaminga faqat va faqat Allohning muhabbati boshlab kelishiga ishora qiladi. Zamonamiz shoiri mumtoz she'riyatda qo'llanadigan charog' (sham) va parvona obrazlarini san'atkorona va ohorli qo'llagani uning mahorati nechog'liq baland ekanini ko'rsatadi.

Hatto nafrat mushti bunda tugilgay,

Axir yagonadir bu yerda maqsad.

Sig'insang, gunohing duv-duv to'kilgay,

Iymonsiz bandaga lekin yo'q shafqat.

Shunchalar mukammal Alloh dargohi,

Mag'firat qil, deya dilni tig'ladim.

Har yondan taralar mo'minlar ohi,

To tongga qadarli yum-yum yig'ladim [Oripov 2021: 432-433].

She'rda tuyg'uning rost, ifodaning samimiy ekani (Bu yerda maqsad yagona ekani, Sig'insang, gunohing duv-duv to'kilishi), har bir satri iymon nuri bilan yo'g'rilgani (Iymonsiz bandaga lekin yo'q shafqat) poetik mazmun, obraz va tasvirning uyg'unligini ta'minlagan. E'tiqodning mustahkamligi (Shunchalar mukammal Alloh bargohi), katarsis holati (Mag'firat qil deya dilni tig'ladim), poetik xulosada lirik kechinma va badiiy talqin mutanosibligi (Har yondan taralar mo'minlar ohi, To tongga qadarli yum-yum yig'ladim) she'rning muvaffaqiyatini ta'minlagan asosiy adabiy-estetik omillardir.

Xulosa qilib aytganda, turli zamonda, bir-biridan mutlaqo farq qiladigan tarixiy sharoitlarda yashab ijod etgan uch buyuk shoir – Alisher Navoiy, Zokirjon Furqat va Abdulla Oripov asarlarida Ka'batulloh tasviri bir-biridan farq qiladi. Bir mavzuda buyuk Alisher Navoiyni takrorlamay, teran ma'rifiy mazmun va yuksak badiiyat uyg'unligida ohorli asar yaratish oson emasligi ayon. Ana shunday murakkab ijodiy missiyani muvaffaqiyat bilan ado etgani Furqat va Abdulla Oripovning yuksak salohiyatiga dalil bo'la oladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Алишер Навоий. Вақфия. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўққизинчи жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ. – 2011.
2. Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Еттинчи жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ. – 2011.
3. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи жилд. – Тошкент: Фан. – 1988.
4. Жабборов, Нурбой. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Монография. – Тошкент: Adabiyot, 2021.
5. Жабборов, Нурбой. Ҳаж ва унинг маърифати. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2019 йил 26 июль.
6. Орипов, Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq. – 2011.
7. Фурқат, Зокиржон. Ҳажнома (Матн ва изоҳлар). //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2019 йил 26 июль.